



**KREDIT OLUVCHILARNING KREDIT SHARTLARIGA OZGARTIRISH KIRITISH/
QAYTA TUZISH BO‘YICHA «TENGE BANK» ATBda ARIZALARINI KO‘RIB CHIQISH
TARTIBI**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur «Tenge Bank» ATBda kredit oluvchilarning kreditlarini qayta tuzish (restrukturizatsiya qilish) bo'yicha arizalarini ko'rib chiqish tartibi (keyingi o'rinlarda — Tartib) O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, jumladan O'zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining normativ-huquqiy hujjatlari, shu jumladan bank xizmatlari iste'molchilari bilan o'zaro munosabatlarni amalga oshirishda tijorat banklari faoliyatiga qo'yiladigan minimal talablar to'g'risidagi Nizom (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2018-yil 2-iyulda 3030-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan), aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha mumkin bo'lgan yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralarni shakllantirish hamda ulardan tijorat banklarida foydalanish tartibi to'g'risidagi Nizom (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2015-yil 14-iyulda 2696-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan) va boshqa normativ hujjatlar, «Tenge Bank» ATB Ustavi (keyingi o'rinlarda — Bank), shuningdek Bankning ichki qoidalariga muvofiq ishlab chiqilgan.
2. Mazkur Tartib moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelgan, murakkab hayotiy vaziyatlarga tushib qolgan, shuningdek fors-major holatlari sababli kredit to'lovlarini o'z vaqtida amalga oshirishda qiyinchiliklarga ega bo'lgan iste'molchilarning amaldagi kreditlari bo'yicha kredit shartnomasi shartlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish (restrukturizatsiya qilish) imkoniyatlari yuzasidan arizalarini ko'rib chiqish tartibini belgilaydi.
3. Mazkur Tartib Bankning barcha tarkibiy bo'linmalari va xodimlari tomonidan ularga yuklatilgan vazifa va funksiyalarni bajarishda majburiy ravishda ijro etilishi lozim.

2-bob. Atamalar va ta'riflar

4. Mazkur Tartibda qo'llaniladigan asosiy atamalar va ta'riflar:

- 1) Bank — «Tenge Bank» ATB;
- 2) kredit oluvchi (qarz oluvchi) — Bank bilan amaldagi kredit shartnomasiga ega bo'lgan jismoniy yoki yuridik shaxs;
- 3) kredit — Bank tomonidan beriladigan kreditlar, mikroqarzlar va mikrokreditlar;
- 4) Bankning rasmiy veb-sayti — <https://www.tengebank.uz/>;
- 5) restrukturizatsiya — Bank oldidagi amaldagi majburiyatlarini bajarishda qiyinchiliklarga duch kelayotgan kredit oluvchilarga nisbatan qo'llaniladigan bank protsedurasi bo'lib, kredit oluvchining moliyaviy yukini kamaytirish natijasida kredit shartnomasi shartlariga o'zgartirishlar kiritishni nazarda tutadi hamda kredit oluvchida bunday imkoniyatlar mavjud bo'lgan taqdirda to'lov jadvaliga qaytish imkonini beradi;
- 6) vakolatli tarkibiy bo'linma — kreditlarni restrukturizatsiya qilish bo'yicha kredit oluvchilarning arizalarini ko'rib chiqish uchun mas'ul bo'lgan Bank bo'linmasi: — jismoniy shaxslar uchun — Chakana savdo kanallarini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash departamenti, Muammoli kreditlar bilan ishlash departamenti; — yuridik shaxslar uchun — Korporativ biznes departamenti, Kichik va o'rta biznes departamenti, Muammoli kreditlar bilan ishlash departamenti;
- 7) vakolatli xodim — 6-bandda ko'rsatilgan vakolatli tarkibiy bo'linma xodimi bo'lib, kreditlarni restrukturizatsiya qilish bo'yicha kredit oluvchilarning arizalarini ko'rib chiqish uchun mas'ul;
- 8) vakolatli organ — Bankning kollegial organi, jumladan Bank Boshqaruvi, Bank qo'mitalari, shu jumladan Chakana kredit qo'mitasi, Biznes maqsadlar uchun kreditlash bo'yicha Kredit qo'mitasi, Filiallar tarmog'i kredit qo'mitasi, Muammoli kreditlar qo'mitasi bo'lib, ular Bankning Nizomi yoki boshqa ichki qoidalariga muvofiq faoliyat yuritadi va masala mohiyati bo'yicha qaror qabul qilish vakolatiga ega;
- 9) Savdo nuqtalari — Bankning Bank xizmatlari markazlari va Bank servis markazlari.

3-bob. Jismoniy shaxslarning qarzdorligini restrukturizatsiya qilish

5. Bankda qarzdorlikni restrukturizatsiya qilish tartibi, qabul qilingan qaror haqida kredit oluvchini xabardor qilish tartibi, shuningdek kredit oluvchilarni qabul qilingan qaror to'g'risida xabardor qilish usullari belgilanadi.
6. Bank kredit oluvchi — jismoniy shaxsga taqdim etilgan ma'lumotlar asosida, uning individual holati va moliyaviy tahlilidan kelib chiqib, quyidagi restrukturizatsiya turlarini taklif qilishi mumkin:
- 1) Shartnoma amal qilish muddatini uzaytirish (prolongatsiya qilish);
 - 2) kredit oluvchining homiladorligi va tug'ruq bilan bog'liq holatlari sababli asosiy qarz summasi va (yoki) foizlarni to'lash bo'yicha 10 oydan ortiq bo'lmagan muddatga kechiktirish yoki to'lov muddatini uzaytirish;
 - 3) kredit bo'yicha foiz stavkasini qayta ko'rib chiqish;
 - 4) to'lov turini o'zgartirish;
 - 5) O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga va Bankning ichki hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa choralar.
7. Restrukturizatsiya kredit oluvchining Shartnoma amal qilish muddati davomida birinchi marotaba Bankka yoki Bankning savdo nuqtalariga bevosita taqdim etgan arizasi asosida amalga oshiriladi. Ariza Bankning rasmiy veb-saytida ko'rsatilgan manzillar orqali yozma shaklda yoki elektron shaklda topshirilishi mumkin.
8. Kredit oluvchi arizani mustaqil ravishda topshirish, shuningdek notarial tartibda tasdiqlangan ishonchnoma asosida o'z vakilini vakolatlantirish huquqiga ega.
9. Kredit oluvchi — jismoniy shaxs arizada quyidagi ma'lumotlarni ko'rsatishi shart:
- 1) kredit oluvchining familiyasi, ismi va otasining ismi, pasport ma'lumotlari, jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami (JShShIR), aloqa ma'lumotlari (telefon raqami, elektron pochta manzili), yashash joyi to'g'risidagi ma'lumotlar;
 - 2) restrukturizatsiya zarurati sabablari batafsil bayoni;
 - 3) restrukturizatsiyaning taklif etilayotgan varianti;
 - 4) restrukturizatsiya uchun asos bo'luvchi tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilingan hujjatlar ro'yxati.
10. Yozma ariza kredit oluvchi tomonidan yoki kredit oluvchining vakolatli shaxsi tomonidan imzolanishi lozim. Kredit oluvchining vakillari orqali topshirilgan arizalarga ularning vakolatlarini tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinadi.
11. Ariza quyidagi holatlar yuzaga kelganligi va ular kredit oluvchi tomonidan hujjatlar bilan tasdiqlangan taqdirda ko'rib chiqiladi:
- 1) kredit oluvchining ikki oydan ortiq muddatga vaqtincha mehnatga layoqatsizligi;
 - 2) kredit oluvchi bilan mehnat shartnomasining bekor qilinishi hamda uning ish qidiruvchi sifatida tuman (shahar) bandlikka ko'maklashish va kambag'allikka qarshi kurashish bo'limlarida ro'yxatdan o'tganligi;
 - 3) tabiiy va texnogen ofatlarning yuzaga kelishi;
 - 4) kredit oluvchining birgalikda qarz oluvchi va (yoki) kafil bo'lgan turmush o'rtog'ining vafoti;
 - 5) kredit oluvchining qaramog'ida I yoki II guruh nogironligi bo'lgan shaxslarning mavjudligi yoki uning qaramog'idagi I yoki II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar sonining ortishi;
 - 6) kredit oluvchiga I yoki II guruh nogironligi belgilanishi;
 - 7) homiladorlik va tug'ruq ta'tilida bo'lishi.
12. Bunda, kredit oluvchi mazkur Tartibning 11-band 1)–2) kichik bandlarida nazarda tutilgan holatlar mavjud bo'lgan taqdirda Shartnoma bo'yicha to'lovlarni kechiktirish yoki to'lov muddatini uzaytirish haqida Bankka ariza bilan murojaat qilganida, ushbu murojaat sanasidan oldingi ikki oy davomida kredit oluvchining o'rtacha oylik daromadi oxirgi o'n ikki oy uchun hisoblangan o'rtacha oylik daromadga nisbatan kamida 30 foizga kamaygan bo'lishi lozim. Mazkur Tartibning 11-band 1)–7) kichik bandlarida ko'rsatilgan holatlar kredit oluvchi tomonidan Shartnoma bo'yicha to'lovlarni kechiktirish yoki to'lov muddatini uzaytirish to'g'risida Bankka ariza topshirilgan sanadan oldingi to'rt oy ichida yuzaga kelgan bo'lishi shart.
13. Arizaga quyidagi tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinadi:

- 1) O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq belgilangan tartibda berilgan, ketma-ket ikki oydan ortiq muddatga vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasi;
- 2) kredit oluvchi bilan mehnat shartnomasi bekor qilinganligi to'g'risidagi buyruq nusxasi, elektron mehnat daftarchasidan ko'chirma, shuningdek O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq belgilangan tartibda berilgan ishsizlik nafaqasi tayinlanganligi to'g'risidagi ma'lumotnoma;
- 3) kredit oluvchining hisoblangan ish haqi to'g'risidagi ma'lumotnoma;
- 4) O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq belgilangan tartibda berilgan tabiiy ofat yoki yong'in sodir bo'lganligi to'g'risidagi ma'lumotnoma yoki xat;
- 5) kredit oluvchining birgalikda qarz oluvchi va (yoki) kafil bo'lgan turmush o'rtog'ining vafoti to'g'risidagi, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq belgilangan tartibda berilgan guvohnoma;
- 6) O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq belgilangan tartibda berilgan mehnatga layoqatsizlik varaqasi, nogironligi bo'lgan shaxslar uchun ijtimoiy karta;
- 7) O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq belgilangan tartibda berilgan homiladorlik va tug'ruq bo'yicha mehnatga layoqatsizlik varaqasi.

14. Qarzdorlikni restrukturizatsiya qilish to'g'risidagi ariza kiruvchi hujjatlarni ro'yxatga olish uchun mas'ul bo'lgan xodim tomonidan qabul qilinadi hamda Bankning elektron hujjat aylanishi tizimi orqali Kanselyariya boshqarmasiga yuboriladi. Kanselyariya boshqarmasi qarzdorlikni restrukturizatsiya qilish to'g'risidagi arizani murojaat sifatida ro'yxatdan o'tkazadi va uni Xizmat ko'rsatish sifati boshqarmasiga yuboradi. Xizmat ko'rsatish sifati boshqarmasi murojaatni vakolatli tarkibiy bo'linmaga yo'naltiradi va murojaatni ko'rib chiqish muddatlari ustidan nazoratni amalga oshiradi. Bankning vakolatli organi tomonidan kreditni restrukturizatsiya qilish yoki restrukturizatsiya qilishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilingandan so'ng, Xizmat ko'rsatish sifati boshqarmasi kredit oluvchiga qabul qilingan qaror to'g'risida xabarnoma bilan javob xatini yuboradi.

15. Qarzdorlikni restrukturizatsiya qilish to'g'risidagi ariza kelib tushganidan so'ng, vakolatli tarkibiy bo'linma arizada keltirilgan holatlarni tahlil qiladi, kredit oluvchi tomonidan taqdim etilgan tasdiqlovchi hujjatlarning haqiqiylikini tekshiradi, arizani qanoatlantirish yoki qanoatlantirmaslik hamda qarzdorlikni restrukturizatsiya qilish usuli bo'yicha asoslantirilgan xulosa tayyorlaydi.

16. Bankning vakolatli tarkibiy bo'linmasi kredit oluvchining qarzdorligini restrukturizatsiya qilish masalasini arizani qanoatlantirish yoki qanoatlantirmaslik to'g'risida qaror qabul qilish uchun Bankning vakolatli organi ko'rib chiqishiga kiritadi.

17. Restrukturizatsiya qilish to'g'risidagi qaror Bankning vakolatli organi tomonidan har bir holat bo'yicha individual tartibda qabul qilinadi.

17¹. Qarz oluvchi – jismoniy shaxsning arizasini ko'rib chiqishda Bank quyidagi mezonlardan kelib chiqib Qarz oluvchining holatlari va hujjatlarini, shuningdek Bankdagi ma'lumotlarni baholaydi:

1. murojaat sabablarining hujjatlar bilan tasdiqlanganligi;
2. kredit bo'yicha to'lov intizomi (kechikishlar, ularning muddati/tez-tezligi, sabablari);
3. Qarz oluvchining joriy va prognoz qilinayotgan kreditga layoqati hamda shartlar o'zgartirilgandan keyin majburiyatlarni bajarishning real imkoniyati;
4. moliyaviy qiyinchiliklarning vaqtinchalik xususiyati va to'lov qobiliyatining tiklanish ehtimoli;
5. amaldagi qonunchilik va mazkur Tartib talablariga rioya etilishi.

18. Qarzdorlikni restrukturizatsiya qilish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqish yakunlariga ko'ra, Bankning vakolatli organi quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi:

- 1) Shartnoma bo'yicha qarzdorlikni restrukturizatsiya qilish to'g'risidagi arizani qanoatlantirish;
- 2) Shartnoma bo'yicha qarzdorlikni restrukturizatsiya qilish to'g'risidagi arizani qanoatlantirishni rad etish.

19. Bank quyidagi hollarda qarzdorlikni restrukturizatsiya qilishni rad etishga haqli:

- 1) kredit oluvchi tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar hujjatlar bilan tasdiqlanmagan yoki tashqi manbalardan olingan ma'lumotlarni tahlil qilish natijasida ularning buzib ko'rsatilganligi aniqlangan taqdirda;
- 2) mazkur Shartnoma bo'yicha ilgari restrukturizatsiya amalga oshirilgan bo'lsa;
- 3) mazkur Tartib va Bankning boshqa ichki qoidalariga muvofiq bo'lmagan taqdirda.
- 20.** Qaror qarzдорlikni restrukturizatsiya qilish to'g'risidagi arizada keltirilgan holatlar hamda taqdim etilgan tasdiqlovchi hujjatlardan kelib chiqib qabul qilinadi.
- 21.** Qarzдорlikni restrukturizatsiya qilish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqishning umumiy muddati ariza ro'yxatdan o'tkazilgan kundan boshlab 15 (o'n besh) kalendar kunni tashkil etadi.
- 22.** Qarzдорlikni restrukturizatsiya qilish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqish uchun zarur va yetarli bo'lgan ma'lumotlar va (yoki) hujjatlarni Bank tomonidan qo'shimcha o'rganish va (yoki) tekshirish zarur bo'lgan hollarda, Bank murojaatni ariza ro'yxatdan o'tkazilgan kundan boshlab bir oygacha bo'lgan muddatda ko'rib chiqadi.
- 23.** Bankning vakolatli organi tomonidan qarzдорlikni restrukturizatsiya qilish yoki rad etish to'g'risida qaror qabul qilingandan so'ng, kredit oluvchiga tegishli xabarnoma yuboriladi.
- 24.** Xabarnoma mijoz tomonidan arizada ko'rsatilgan pochta manzili va (yoki) elektron pochta manziliga rasmiy xat yuborish orqali jo'natiladi.
- 25.** Qarzдорlikni restrukturizatsiya qilish to'g'risidagi ariza qanoatlantirilganligi haqidagi xabarnomada kredit oluvchiga tegishli qo'shimcha kelishuv tuzish taklif etiladi, shuningdek Shartnoma shartlarining o'zgarishi natijasida kelgusi to'lovlarning davriyligi, muddati va miqdori o'zgargan taqdirda, o'zgartirilgan to'lov jadvali ilova qilinadi.
- 26.** Qarzдорlikni restrukturizatsiya qilish to'g'risidagi arizani qanoatlantirish rad etilganligi haqidagi xabarnomada rad etish sabablari, shuningdek imkon qadar arizani qanoatlantirish maqsadida kredit oluvchi tomonidan qarzдорlikni restrukturizatsiya qilish bo'yicha arizani takroran topshirish uchun amalga oshirilishi mumkin bo'lgan harakatlar variantlari ko'rsatiladi.
- 27.** Ijobiy qaror qabul qilingan taqdirda, kredit oluvchi amaldagi kredit shartnomasiga qo'shimcha kelishuvni imzolaydi, unda yangi shartlar hamda to'lov jadvali belgilanadi.
- 28.** Restrukturizatsiya to'g'risidagi ma'lumotlar qonunchilikda belgilangan tartibda kredit byurosiga taqdim etiladi.
- 29.** Bankning vakolatli organi tomonidan qabul qilingan restrukturizatsiya to'g'risidagi qaror kredit oluvchiga yuborilgan xabarnomada ko'rsatilgan muddat davomida amal qiladi. Ushbu muddat tugaganidan so'ng takroran murojaat qilish yangi ariza sifatida ko'rib chiqiladi.
- 30.** Kredit oluvchi taqdim etilgan ma'lumotlar va hujjatlarning to'liqligi hamda ishonchiligi uchun javobgar hisoblanadi. Noto'g'ri yoki ishonchsiz ma'lumotlar aniqlangan taqdirda, Bank restrukturizatsiya qilishni rad etish yoki ilgari kelishilgan restrukturizatsiya shartlarini qayta ko'rib chiqish huquqini o'zida saqlab qoladi.

4-bob. Yuridik shaxslarning qarzдорligini restrukturizatsiya qilish

- 31.** Yuridik shaxsning kreditini restrukturizatsiya qilish Bank tomonidan belgilangan shakldagi ariza asosida amalga oshiriladi. Ariza Shartnoma amal qilish muddati davomida birinchi marta bevosita Bankka taqdim etilishi lozim. Ariza yozma shaklda yoki elektron shaklda, Bankning rasmiy veb-saytida ko'rsatilgan manzillar orqali topshirilishi mumkin.
- 32.** Kredit oluvchi — yuridik shaxs arizada quyidagi ma'lumotlarni ko'rsatishi shart:
 - 1) yuridik shaxsning to'liq nomi, soliq to'lovchining identifikatsiya raqami (STIR);
 - 2) yuridik shaxsning ro'yxatga olingan manzili va kompaniyaning haqiqiy joylashuvi;
 - 3) vakolatli shaxsning familiyasi, ismi va otasining ismi;
 - 4) aloqa ma'lumotlari (telefon raqami, elektron pochta);
 - 5) talab qilinayotgan restrukturizatsiya shartlari;
 - 6) amaldagi kredit dasturi va shartnoma raqamlari;

- 7) moliyaviy holatning yomonlashishi yoki to'lov jadvalining buzilish sabablari;
- 8) taklif etilayotgan qo'shimcha kafolatlar, shu jumladan qo'shimcha kafil taqdim etish.
- 33.** Yozma ariza kredit oluvchi yuridik shaxsning vakolatli shaxsi tomonidan imzolanishi shart. Kredit oluvchining vakillari orqali topshirilgan arizalarga ularning vakolatlarini tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinadi.
- 34.** Bank kredit oluvchi yuridik shaxsga quyidagi restrukturizatsiya turlarini taklif qilish huquqiga ega: kredit shartnomasi, kredit liniyasi, Umumiy (Generallik) kelishuv va (yoki) alohida bank krediti muddati uzaytirilishi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga va Bankning ichki hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa restrukturizatsiya shakllari. Takliflar har bir kredit oluvchining individual holati va moliyaviy tahlil natijalari asosida belgilanadi.
- 35.** Ariza, moliyaviy holatning yomonlashishi yoki to'lov jadvalining buzilishiga sabab bo'lgan holatlar kredit oluvchi tomonidan hujjatlar bilan tasdiqlanganda, shuningdek, bunday holatlar obyektiv xarakterga ega bo'lib, kredit oluvchining nohalol harakatlari natijasi bo'lmagan taqdirda, ko'rib chiqiladi.
- 36.** Arizaga quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:
- 1) Yuridik shaxsning asos soluvchi hujjatlari nusxalari (ustav, unga kiritilgan o'zgartirishlar — mavjud bo'lsa);
 - 2) Arizani imzolagan shaxsning vakolatini tasdiqlovchi hujjatlar (tayinlash buyrugi, vakolatli organning protokol/qarori, ishonchnoma — zarurat bo'lsa);
 - 3) So'nggi hisobot davri va so'nggi yakunlangan kalendar yili bo'yicha buxgalteriya (moliyaviy) hisobotlar;
 - 4) Yuridik shaxsning moliyaviy holatining yomonlashishi va (yoki) to'lov jadvalining buzilganligini tasdiqlovchi hujjatlar (shu jumladan, lekin bilan cheklanmagan: daromadning kamayishi, asosiy shartnomalarning bekor qilinishi, faoliyatni to'xtatish, majburiyatlarning ortishi, sud ishlar, boshqa holatlar);
 - 5) Joriy moliyaviy holat va pul oqimi to'g'risidagi ma'lumotnoma (mavjud bo'lsa);
 - 6) Bankrotlik, likvidatsiya yoki reorganizatsiya jarayonlarining mavjudligi yoki yo'qligi to'g'risidagi ma'lumotlar;
 - 7) Kreditorga arizani ko'rib chiqish uchun zarur bo'lgan boshqa hujjatlar.
- 37.** Qarzdorlikni restrukturizatsiya qilish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqishning umumiy muddati ariza ro'yxatdan o'tkazilgan kundan boshlab 15 (o'n besh) kalendar kunni tashkil etadi.
- 38.** Zarurat tug'ilganda, Bank arizani ko'rib chiqish uchun zarur va yetarli ma'lumotlar va (yoki) hujjatlarni qo'shimcha o'rganish va (yoki) tekshirish talab qilinsa, murojaat ariza ro'yxatdan o'tkazilgan kundan boshlab bir oygacha bo'lgan muddatda ko'rib chiqiladi.
- 39.** Qarzdorlikni restrukturizatsiya qilish to'g'risidagi ariza kiruvchi hujjatlarni ro'yxatga olish uchun mas'ul xodim tomonidan qabul qilinadi va Bankning elektron hujjat aylanishi tizimi orqali Kanselyariya boshqarmasiga yuboriladi.
- Kanselyariya boshqarmasi arizani murojaat sifatida ro'yxatdan o'tkazadi va uni Xizmat ko'rsatish sifati boshqarmasiga yo'naltiradi.
- Xizmat ko'rsatish sifati boshqarmasi murojaatni vakolatli tarkibiy bo'linmaga yuboradi va murojaatni ko'rib chiqish muddatlarini nazorat qiladi.
- Bankning vakolatli organi tomonidan qaror qabul qilinganidan so'ng (qarzdorlikni restrukturizatsiya qilish yoki rad etish), Xizmat ko'rsatish sifati boshqarmasi kredit oluvchiga qabul qilingan qaror to'g'risida xabarnoma bilan javob xatini yuboradi.
- 40.** Restrukturizatsiya to'g'risidagi ariza qabul qilingandan so'ng, Bankning vakolatli xodimi ichki qoidalar bilan belgilangan tegishli tadbirlarni amalga oshiradi.
- 41.** Bankning vakolatli xodimi kredit oluvchining qarzdorligini restrukturizatsiya qilish masalasini Bankning vakolatli organi ko'rib chiqishiga kiritadi.
- 42.** Bankning vakolatli organi ko'rib chiqish uchun taqdim etilgan materiallar asosida quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi:

- 1) kreditni restrukturizatsiya qilish;
- 2) taqdim etilgan materiallarni tegishli Bank bo'linmalariga qayta ishlash uchun yuborish;
- 3) kreditni restrukturizatsiya qilishni rad etish;
- 4) O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Bankning ichki hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa qaror.

43. Yuridik shaxsning qarzdorlikni restrukturizatsiya qilish to'g'risidagi arizasini ko'rib chiqishda Bank taqdim etilgan hujjatlar, Bankda mavjud ma'lumotlar hamda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida taqiqlanmagan boshqa manbalar asosida Qarz oluvchining moliyaviy holati va kreditga layoqatini kompleks baholaydi. Qaror har bir holat bo'yicha individual tarzda qabul qilinadi.

43¹. Qarz oluvchi – yuridik shaxsning qarzdorlikni restrukturizatsiya qilish to'g'risidagi arizasini ko'rib chiqishda Bank quyidagi mezonlarga amal qiladi:

1. **Qarz oluvchining moliyaviy holati**, jumladan, ammo ular bilan cheklanmagan holda:
 - tushum, foyda va pul oqimlari dinamikasi;
 - likvidlik, to'lovga qobiliyatlik va moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari;
 - qarz yuklamasi darajasi;
 - Bank va boshqa kreditorlar oldida muddati o'tgan qarzdorlik mavjudligi;
 - byudjet va byudjetdan tashqari jamg'armalar oldida majburiy to'lovlar bo'yicha qarzdorlik mavjudligi.
2. **Qarz oluvchining moliyaviy holati yomonlashuvi sabablari**, jumladan:
 - obyektiv tashqi omillarning mavjudligi (bozor kon'yunkturasining o'zgarishi, valyuta kurslari, tariflar, xomashyo narxlari, fors-major holatlar va boshqa omillar);
 - Qarz oluvchining moliyaviy holatiga ta'sir ko'rsatgan ichki omillar tahlili;
 - majburiyatlarni bajarishdan bo'yin tovlashga qaratilgan insofsiz harakatlar alomatlarining yo'qligi.
3. **Qarz oluvchining to'lov qobiliyatini tiklash istiqbollari**, jumladan:
 - asoslantirilgan moliyaviy sog'lomlashtirish rejasining mavjudligi;
 - pul oqimlari prognozi;
 - amaldagi yoki kutilayotgan shartnomalar, investitsiyalar yoxud boshqa daromad manbalarining mavjudligi;
 - moliyaviy holatni barqarorlashtirish uchun Qarz oluvchi tomonidan ko'rilayotgan choralar.
4. **Qarz oluvchining kredit tarixi**, jumladan:
 - o'tgan davrda kredit shartnomalari shartlariga rioya etilishi;
 - avvalgi restrukturizatsiyalar mavjudligi;
 - sud nizolari, ijro ish yurituvlari va boshqa yuridik xatarlar mavjudligi.
5. **Ta'minotning mavjudligi va yetarliligi**, jumladan:
 - garov predmetlarining likvidligi va qiymati;
 - qo'shimcha ta'minot yoki kafillik taqdim etish imkoniyati;
 - ta'minot qiymatining qarzdorlik miqdoriga nisbati.

43². Qarzдорlikni restrukturizatsiya qilish to'g'risidagi qaror quyidagi shartlar bir vaqtning o'zida mavjud bo'lganda qabul qilinishi mumkin:

1. Qarz oluvchining moliyaviy holati yomonlashuvi sabablari hujjatlar bilan tasdiqlangan va obyektiv xususiyatga ega;
2. Qarz oluvchida to'lov qobiliyatini tiklash uchun real asoslar mavjud;
3. restrukturizatsiya Bankning kredit riskini kamaytirishga olib keladi;
4. zarur hollarda Qarz oluvchi qo'shimcha ta'minot yoki majburiyatlarning bajarilishini ta'minlovchi boshqa kafolatlar taqdim etishga rozilik bildiradi.

44. Restrukturizatsiya yoki rad etish to'g'risidagi qaror qabul qilingandan so'ng, kredit oluvchiga tegishli xabarnoma yuboriladi.

45. Xabarnoma Shartnomada va (yoki) restrukturizatsiya arizasida ko'rsatilgan aloqa vositalari orqali yuboriladi.

46. Qarzdorlikni restrukturizatsiya qilish arizasi qanoatlantirilganligi haqidagi xabarnomada kredit oluvchiga tegishli qo'shimcha kelishuv tuzish taklif etiladi, shuningdek, Shartnoma shartlarining o'zgarishi natijasida to'lovlarning davriyligi, muddati va miqdori o'zgargan bo'lsa, o'zgartirilgan to'lov jadvali ilova qilinadi.
47. Qarzdorlikni restrukturizatsiya qilish arizasi qanoatlantirilmagan taqdirda, xabarnomada rad etish sabablari ko'rsatiladi va imkon qadar kredit oluvchi tomonidan arizani qayta topshirish uchun tavsiya etiladigan harakatlar variantlari beriladi.
48. Ijobiy qaror qabul qilingan taqdirda, kredit oluvchi amaldagi kredit shartnomasiga qo'shimcha kelishuvni imzolaydi, unda yangi shartlar va to'lov jadvali, shuningdek, tegishli majburiyat bo'yicha qarzdorlik summasi bo'yicha akt-sverka belgilanadi.
49. Restrukturizatsiya to'g'risidagi ma'lumotlar qonunchilikda belgilangan tartibda kredit byurosiga taqdim etiladi.
50. Bankning vakolatli organi tomonidan qabul qilingan restrukturizatsiya qarori, kredit oluvchiga yuborilgan xabarnomada ko'rsatilgan muddat davomida amal qiladi. Ushbu muddat tugagach, takroriy murojaat yangi ariza sifatida ko'rib chiqiladi.
51. Kredit oluvchi taqdim etilgan ma'lumotlar va hujjatlarning to'liqligi va ishonchliligi uchun javobgar hisoblanadi. Noto'g'ri yoki ishonchsiz ma'lumotlar aniqlangan taqdirda, Bank restrukturizatsiya qilishni rad etish yoki ilgari kelishilgan restrukturizatsiya shartlarini qayta ko'rib chiqish huquqini o'zida saqlab qoladi.

5-bob. Yakuniy qoidalar

52. Bank o'zining rasmiy veb-saytida ushbu Tartib orqali kredit oluvchilarga qarzdorlikni restrukturizatsiya qilish bo'yicha ariza berish huquqi, arizaga tasdiqlovchi hujjatlarni ilova qilish zarurati hamda ariza mazmuniga qo'yiladigan talablar to'g'risida ma'lumot beradi.
53. Ushbu hujjatni amaldan chiqarish, unga o'zgartirishlar kiritish va boshqa tegishli harakatlar ushbu hujjatning ishlab chiquvchisi tomonidan Bankning ichki qoidolari asosida amalga oshiriladi.
54. Bank bo'linmalarini restrukturizatsiya qilish hollarda, ushbu Tartibda belgilangan barcha huquq va majburiyatlar tegishli tarkibiy bo'linmaning huquqiy merosxo'liga o'tadi.
55. Agar ushbu hujjatning ayrim qoidolari O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligi va/yoki Bankning Ustavi bilan ziddiyatga kirs, ushbu qoidalar amalini yo'qotadi, va ushbu qoidalar bilan tartibga solinadigan masalalarda amaldagi qonunchilik va/yoki Bank Ustavi qoidalariga muvofiq harakat qilinadi, shu paytgacha tegishli o'zgartirishlar kiritilmaguncha.
56. Ushbu Tartibda tartibga solinmagan masalalar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Bankning ichki qoidolari bilan tartibga solinadi.
57. Ushbu hujjatning asl nusxasini saqlash va nazorat qilinadigan nusxalarini taqdim etish ishlari Yuridik bo'limning Metodologiya boshqarmasi tomonidan amalga oshiriladi.